

## PCSK 9 TIP FERMENTINING MULTIFOKAL ATEROSKLEROZDAGI AHAMIYATI

**K.A.Axmatova**

**D.M.Azizova**

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent O'zbekiston*

**Kirish.** Aterogenez turli patofiziologik yo'llarni, jumladan yallig'lanish mexanizmlarini ham o'z ichiga oladi. So'nggi ilmiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, propotein konvertaza subtilizin/keksin tip 9 (PCSK9) turli tomir kasalliklari patogenezida ishtirok etadi. Hozirgi kunda tadqiqotlarning aksariyati PCSK9 orqali lipid almashinuvining bilvosita regulyatsiyasiga qaratilgan bo'lsa-da, tobora ko'proq dalillar PCSK9 sekretiya qilinadigan oqsil sifatida nafaqat mahalliy, balki tizimli ta'sir ko'rsatishini va muhim immunoregulyator oqsil bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Xususan, C. Ricci va hammualliflar PCSK9 ning makrofaglarga ta'sir qilib, proyallig'lanish interleykinlari ekspressiyasini kuchaytirishini ishonchli tarzda namoyish etgan; o'z navbatida, eksperimental va klinik ma'lumotlar tizimli yallig'lanish PCSK9 ekspressiyasining oshishiga olib kelishini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari PCSK9 aniqlanganligi giperxolesterolemiya va yurak qon-tomir kasalliklarini davolash uchun yangi nishon paydo bo'lganligini bildiradi. Natijada, PCSK9 biokimyosi va fiziologiyasi to'g'risidagi tushunchalar PCSK9 va uning ingibitorlari haqidagi ma'lumotlar doirasining kengayishiga olib keladi.

**Tadqiqot maqsadi** PCSK9 (proprotein konvertaza subtilizin keksin 9 tip) fermenti esa ZPLplaning periferik hujayralar tomonidan yutilishini ta'minlovchi ZPLp retseptorining kamayishiga sabab bo'luvchi ferment hisoblanib, bevosita qonda ZPLpning ko'payib ketishiga olib keladi. Xozirda keng qo'llaniladigan statin preparatlarining ta'sir mexanizmi esa aynan mana shu ferment miqdorini kamaytirishga ta'sir ko'rsatadi, lekin shu bilan bir qatorda jigar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli hozirda eksperimental tadqiqotlar olib borilishidagi asosiy maqsad, ushbu ferment miqdorini kamaytiruvchi, lekin jigar faoliyatiga salbiy ta'sir etmaydigan dori preparatlarini topish bo'lib qolmoqda.

**Material va tadqiqot usullari** Buning uchun eksperimental quyonda ateroskleroz modeli chaqirildi. Barcha quyonlar 6 ta guruhga bolindi. 1-guruh intakt, 2-guruh nazorat, 3-guruh "tiotsin" preparatining 35mg/kg dozasi bilan 1 oy davomida davolangan guruh, 4-guruh "tiotsin" preparatining 70mg/kg dozasi bilan 1 oy davomida davolangan guruh, 4-guruh "Levazo" deb nomlangan statin preparati bilan davolangan guruh, 6-guruh "tiotsin" preparatining 70mg/kg dozasi va "Levazo" preparati birgalikda 1 oy davomida davolangan guruhlarni o'z ichiga oldi. Bu quyonlarda aterosklerozni chaqirish uchun Anichnikovning quyonlarni xolesterin

bilan oziqlantirish orqali tipik aterosklerotik o'zgarishlar paydo qilgan metodidan foydalanildi.

**Olingan natijalar** Eksperimental quyonlarda PCSK9 (proprotein konvertaza subtilizin keksin 9 tip) miqdori 1-guruh va 2-guruh quyonlarga solishtirilganda 6 guruh quyonlarda eng samarador shaklda o'zgarganligi ko'rindi. Bu esa ushbu PCSK9 (proprotein konvertaza subtilizin keksin 9 tip) fermenti miqdorini sezilarli kamaytiruvchi, lekin jigar faoliyatiga salbiy ta'sir etmaydigan dori preparatlarini topish yo'nalishida yangi preparatning samaradorligini yaqqol namoyon qildi.

**Xulosa.** Xozirgi vaqtda multifokal aterosklerozda tizimli qon tomir yallig'lanish holatiga PCSK9 ingibirlanishining ta'siri tog'risida ko'plab eksperimental va klinik tadqiqotlar olib borilmoqda. Ateroskleroz modelida olib borilgan tadqiqotga ko'ra, PCSK9ni ingibirlash multifokal aterosklerozni rivojlanish jarayonini qisman to'xtatib, pilakcha morfologiyasining yaxshilanishiga sabab bo'ldi. PCSK9ning yallig'lanish bilan bog'liqligi to'g'risidagi ushbu ochilish PCSK9 va uning ingibitorlari to'g'risidagi fikrlarni yanada tiniqlashtirib, multifokal ateroskleroz va yurak qon-tomir kasalliklari profilaktikasida yangi yo'nalishning paydo bo'lishiga olib keldi va tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra multifokal aterosklerozda qo'llaniladigan statin dori preparatlari PCSK9 faolligiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi shuning uchun bu fermentning faolligini pasaytiruvchi va ZPLp retseptorlarini miqdorini oshiruvchi preparatlarni o'rganish hozirgi kunda dolzarb muammo bo'lib kelmoqda.

№	Mualliflik ma'lumotnomasi	
1	Familiyasi, ismi, otasining ismi	Axmatova Kamola Alijon qizi
2	Ish joyi	Toshkent davlat tibbiyot universiteti
3	Lavozimi, ilmiy unvoni, darajasi	Tayanch doktorant, PhD
4	Pochta indeksi ko'rsatilgan pochta manzili	axmatovakamola49@gmail.com
5	Mobil va yoki xizmat telefon raqamlari	+998881381801
6	Elektron pochta manzili	axmatovakamola49@gmail.com
7	Anjuman yo'nalishi	
8	Qatnashish turi	Tezis chop ettirish
		PCSK 9 tip fermentining multifokal aterosklerozdagi ahamiyati